



## XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 17-yanvar

VII-5-1-4-58-K/25

Qamashi tumani

### **Qamashi tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig'i stavkalari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli, tuman soliq inspeksiyasining 2024-yil 24-dekabrdagi 27-04533-son xati va O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 429 va 437-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Qamashi tumani soliq inspeksiyasi boshlig'ining 2024-yil 24-dekabrdagi 27-04533-son hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman mahallalarini iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig'ining bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdorlari 1-ilovaga;

Qamashi tuman bo'yicha 2025-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2-ilovaga;

Qamashi tuman bo'yicha 2025-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo'lgan suv solig'i stavkasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan Qamashi tuman bo'yicha Soliq kodeksida belgilangan yer solig'i stavkalarida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqiga ega;

bunda: yer solig'ining amaldagi stavkalari 1, 07 baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash ma'qullansin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari tuman Kengashining “Qamashi tumanida 2024-yil yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash to‘g‘risida” 2024-yil 17-yanvardagi VI-67-4-4-58-K/24-son qarori hamda “Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining 2024-yil 17-yanvardagi VI-67-4-4-58-K/24-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 27-fevraldagi VI-67-21-4-58-K/24-son qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (Rasulov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Muminov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Toshturdiyev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



USMONOV XURSHID  
ABDUKARIMOVICH

Xalq deputatlari Qamashi tumani  
Kengashining  
2025-yil 17-yanvardagi  
VII-5-1-4-58-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Qamashi tuman mahallalarini iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab  
2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig'ining bazaviy  
stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdorlari**

№	MFY nomi	2025-yil uchun			
		Tuman xalq deputatlari tomonidan belgilangan koeffitsiyent		Soliq stavkasi	
		Turar	Noturar (yuridik)	Turar	Noturar (yuridik)
1	Ibn Sino	1	0,9	281,60	3 029,40
2	Changak	0,8	0,7	225,28	2 356,20
3	Dovud	0,8	0,7	225,28	2 356,20
4	Odoqjonbo'z	0,9	0,9	253,44	3 029,40
5	Mayda	0,9	0,8	253,44	2 692,80
6	Ulug'bek	1,1	1,1	309,76	3 702,60
7	Zafar	1,1	1,1	309,76	3 702,60
8	O'zbekiston	1,1	1,1	309,76	3 702,60
9	Qorasuv	1,1	1	309,76	3 366,00
10	Samarqand	1	1	281,60	3 366,00
11	Quy yangi	0,9	0,8	253,44	2 692,80
12	Qoratepa	0,9	0,8	253,44	2 692,80
13	Mangit	0,9	1	253,44	3 366,00
14	Bog'obod	0,8	0,7	225,28	2 356,20
15	Yortepa	0,8	0,7	225,28	2 356,20
16	Olmazor	0,9	0,8	253,44	2 692,80
17	Oqguzar	0,9	0,8	253,44	2 692,80
18	Qamay	0,9	0,8	253,44	2 692,80
19	Nurli yo'l	0,9	0,8	253,44	2 692,80
20	Badaxshon	0,9	0,8	253,44	2 692,80
21	Loyqasoy	0,9	0,8	253,44	2 692,80
22	G'ishtli	0,9	0,8	253,44	2 692,80
23	Navoiy	1,1	1,1	309,76	3 702,60
24	Qizilqishloq	0,8	0,7	225,28	2 356,20

25	Istiqbol	0,9	0,9	253,44	3 029,40
26	O'rta dara	0,8	0,7	225,28	2 356,20
27	Katta o'ra	0,8	0,8	225,28	2 692,80
28	Oynako'l	0,8	0,7	225,28	2 356,20
29	Obod	1,1	1	309,76	3 366,00
30	Ko'kbuloq	0,8	0,7	225,28	2 356,20
31	Gulshan	0,9	1	253,44	3 366,00
32	Balandchayla	0,9	0,8	253,44	2 692,80
33	Yangi avlod	1	1,1	281,60	3 702,60
34	Mehr	0,9	0,8	253,44	2 692,80
35	Tinchlik	0,9	1	253,44	3 366,00
36	Guliston	1	0,8	281,60	2 692,80
37	Jonbo'z	1	0,9	281,60	3 029,40
38	Qo'ng'irot	0,9	0,7	253,44	2 356,20
39	Chim	1	0,9	281,60	3 029,40
40	Qo'shkapa	0,9	0,8	253,44	2 692,80
41	Sarbozor	0,9	0,8	253,44	2 692,80
42	Paxtaobod	0,9	0,8	253,44	2 692,80
43	Qiziltepa	0,9	0,8	253,44	2 692,80
44	Qovchin	0,9	0,8	253,44	2 692,80
45	Boburtepa	0,8	0,8	225,28	2 692,80
46	Qishliq	0,8	0,7	225,28	2 356,20
47	Rabot	0,9	0,9	253,44	3 029,40
48	Qorabog'	0,9	0,8	253,44	2 692,80
49	Boybo'ri	0,9	0,8	253,44	2 692,80
50	Berdoli	0,9	0,8	253,44	2 692,80
51	Elobod	0,8	0,7	225,28	2 356,20
52	Do'stlik	1,1	1	309,76	3 366,00
53	Oqrabod	1	0,9	281,60	3 029,40
54	To'qboy	1	0,9	281,60	3 029,40
55	Bunyodkor	0,9	0,8	253,44	2 692,80
56	Yuksalish	0,8	0,7	225,28	2 356,20
57	Chuqurqishloq	0,8	0,7	225,28	2 356,20
58	Kaptarxona	0,9	0,8	253,44	2 692,80
59	Uzun	0,9	0,8	253,44	2 692,80
60	Sohibkor	0,9	0,8	253,44	2 692,80
61	Azlartepa	0,9	0,8	253,44	2 692,80

Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining  
2025-yil 17-yanvardagi  
VII-5-1-4-58-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

**Qamashi tuman bo'yicha 2025-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo'lgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi**

so'mda

T/r	Hudud nomi	2025-yida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi						
		Arralanadigan xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips tosh, gips va angidrit, ganch	G'isht-cherepitsa xom-ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar
1	Qamashi tumani	7 392	11 000	24 000	36 000	19 140	5 544	6 250

Xalq deputatlari Qamashi tumani Kengashining  
2025-yil 17-yanvardagi  
VII-5-1-4-58-K/25 -son qaroriga  
3-ilova

**Qamashi tuman bo'yicha 2025-yil uchun tasdiqlanishi lozim bo'lgan suv solig'i stavkasi**

so'm m/kub

T/r	Hudud nomi	2025-yilda suv solig'i stavkasi							
		Yer usti				Yer osti			
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTT lar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridag i korxonalar, shuningdek YATT lar	Sanoat korxonalari	Avtotransport vositalarini yuvish	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)
1	Qamashi tumani	770	770	15 000	38 000	935	935	15 000	38 000